

**“O‘QITUVCHILAR – BILIM YETKAZUVCHI, HUJJAT
TAYYORLOVCHI EMAS!”**

**PROFESSIONAL TA‘LIMDA O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK
YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR.**

Sotvoldiyev Nodirjon Muhammadkozimovich

Marg‘ilon iqtisodiyot va servis texnikumi

e-mail: sotvoldiev.nodirjon@mail.ru

+99890-562-15-89

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik yuklamalarini optimallashtirish, asosiy e‘tibor ta‘lim sifati va natija ko‘rsatkichlariga qaratilishi kerakligi hamda bu borada hozirda professional ta‘lim tizimida amalda bo‘lgan o‘qituvchilarning an‘anaviy ish yuritishidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga maqolada O‘quvchilar bilimini obyektiv baholashdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchilar, pedagogik yuklama, hujjatbozlik, bilimni baholash, ta‘lim sifati, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, professional ta‘lim, obyektiv baholash, vaqtni boshqarish, o‘quv jarayoni, test sinovlari, elektron jurnal, metodik ishlar, o‘qituvchilarni rag‘batlantirish.

**"TEACHERS ARE KNOWLEDGE PROVIDERS, NOT DOCUMENT
PREPARERS!"**

**OPTIMIZING THE PEDAGOGICAL WORKLOAD OF TEACHERS IN
VOCATIONAL EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS.**

Nodirjon Mukhammadkozimovich Sotvoldiyev

Margilan Economics and Service Technical School

Annotation: This article discusses the optimization of pedagogical workloads for teachers working in the field of vocational education, emphasizing that the primary focus should be on the quality of education and performance indicators. It also highlights the current challenges in the traditional teaching methods within the vocational education system and presents reflections on how to address them.

Additionally, the article explores issues related to the objective assessment of students' knowledge and proposes ways to resolve them.

Keywords: teachers, pedagogical workload, paperwork, knowledge assessment, education quality, digitalization, automation, vocational education, objective evaluation, time management, learning process, testing, electronic gradebook, methodological work, teacher motivation.

Kirish.

Muammoning mohiyati.

Ozbekiston Respublikasi umumiy va oliy ta'lim tizimida so'ngi yillarda juda yaxshi islohotlar otkazildi. Bulardan asosiysi o'qituvchining har oyda pedogogik yuklamalari hisobotlari hujjatlarini tayyorlab qog'oz versiyada ma'muriyatga topshirish kabi ortiqcha vaqtни talab qiladigan ishlariga barham berildi.

Ammo, professional ta'lim tizimida bu kabi eskicha yondoshuv va an'anaviy talablarga hamon amal qilib kelinmoqda.

Professional ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar nafaqat dars berish va darsga tayyorgarlik ko'rish, balki bundan tashqari ko'plab hujjatlar tayyorlash, ya'ni, pedagogik yuklama hujjatlarini tayyorlash kerakligi ularning juda ko'p vaqtini olishga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining eng asosiy ishi bo'lgan darsga tayyorgarlik ko'rishiga va uni sifatli o'tishiga, yangi mavzu uchun turli interfaol metodlarni izlab topishiga, eng asosiysi O'quvchilarning yangi bilimlarni olishi uchun sarflaydigan vaqtini kamaytirishga olib kelmoqda. Qisqa qilib aytganda o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari ortiqcha "hujjatbozlik", "rasmbozlik" kabi ishlar bilan mashg'ul bo'lmoqda.

Bunday holat quyidagilarni keltirib chiqarmoqda:

- O'qituvchining darsga sifatli tayyorgarlik ko'rish vaqtini kamayishi;
- Ijodiy yondashuv va yangi pedagogik usullarni qo'llash imkoniyatini cheklanishi;
- O'qituvchilarning professional kuyish (burnout) sindromiga duchor bo'lishi;
- Ta'lim sifatining pasayishiga ta'sir qilishi;
- O'quvchilarning o'qituvchiga, fanga, darsga qiziqishlarini pasayishi.

Asosiy muammolar:

1. Ortiqcha hujjatbozlik:

- Har oy ko'plab jadvallar, hisobotlar, monitoringlar to'ldirish talabi;
- Boshqa o'qituvchilarning darslarini tahlil qilib, har bir dars tahlilini yozib oylik hisobotda taqdim etishning majburiy ekanligi;

- Har bir guruhda o'tgan oylik dars soatlarini hisoblab qog'oz versiyada taqdim etishi;
- Darsdan tashqari ko'pgina jarayonlarni rasmga olishi va uni qog'ozga chop etib oylik hisobotda taqdim etishi;
- Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari bo'yicha konsultatsiyalar o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi;
- Mustaqil ishlarni qabul qilganligini, yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi ishida ishtirok etganligini tasdiqlovchi fotolavhalarni tayyorlashi;
- Oraliq va yakuniy nazorat ishlarini o'tkazganligini, shuningdek O'quvchining qoldirgan (o'zlashtirmagan) darslarini qayta topshirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlashi;
- Ochiq dars yoki master-klassga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi;
- O'quvchilarni fan (modul) olimpiadasi, kasbiy ko'rik tanloviga tayyorlash ishlari bo'yicha hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi;
- Talim dasturlarini ishlab chiqish yoki takomillashtirish ishlarida ishtirok etganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi;
- Ilmiy maqola yoki tezislar yozishi va nashr ettirishi;
- Umumiy o'rta talim tashkilotlari o'quvchilari, shuningdek katta yoshdagilar o'rtasida kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borganligini tasdiqlovchi ishlar haqida hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi;
- Professional talim muassasasida tashkil etilgan fan, sport va kasb to'garaklarini olib borganligini tasdiqlovchi jurnalni yuritishi, fotolavhalar tayyorlashi;
- Sport, madaniy-marifiy, ko'rik tanlovlar, seminar, treyning va konferensiyalar o'tkazganligi va ishtirok etishganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, fotolavhalarni tayyorlashi.

Afsuslanarlisi shuki, yuqorida sanab o'tilgan darsdan tashqari bajariladigan barcha "hujjatbozlik", "rasmbazlik" ishlari O'quvchi uchun emas, balki qachondir kelib o'qituvchini bajargan ishlarini tekshiruvchi, kamchilik topib moliyaviy chora ko'ruvchi uchun ekanligidir. Bu holat o'qituvchini mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatib uni ortiqcha bosim bilan ishlashga majbur qiladi. Bu o'z navbatida, o'qituvchilarning darsga tayyorgarlik ko'rishiga, yangi mavzu uchun interfaol metodlarni izlab topishiga, noan'anaviy dars o'tish texnologiyalarini ishlab chiqishga vaqtlari yetmay qolishiga olib keladi. Natijada dars jaroyoni

qiziqarsiz, sifatsiz tashkillanadi, O'quvchilarning darsga qiziqishlari, faolliklari ta'minlanmay qoladi, ta'limda samaradorlik ko'rsatkichlari pasayib ketadi.

2. O'quvchilar bilimini obyektiv baholashdagi muammolar:

o **Baholashning subyektivligi** - O'quvchilarning bilimini baholashda ba'zan o'qituvchilarning shaxsiy fikrlari yoki his-tuyg'ulari ta'sir qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, yozma imtihonlar yoki sinovlarda, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan baholashda namoyon bo'lishi mumkin. O'qituvchining shaxsiy yondashuvi yoki ba'zi O'quvchilar bilan munosabatlari, bilimni baholashning to'g'ri va ob'ektiv bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin;

o **Bilimni baholashda texnologiyalarning kam ishlatilishi** - Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim tizimida bilimni baholashda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar faol qo'llaniladi. O'zbekistonda bu boradagi ishlar yangi bosqichda rivojlanayotgan bo'lsa-da, texnologiyalarni baholash tizimiga integratsiya qilishda hali to'liq natijalarga erishilmagan. Bu esa baholashni yanada ob'ektiv va samarali bo'lishini qiyinlashtiradi.

3. Vaqtni samarasiz sarflash:

o Qo'lda, kompyuterda yozish, chop etish, ko'chirish, tasdiqlash jarayonlari qo'shimcha vaqt talab qiladi.

4. Raqamlashtirishning yetishmasligi:

o Ko'pgina professional ta'lim muassasalarida elektron hujjatlarni boshqaruv tizimi hali yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Taklif etiladigan yechimlar:

1. Hujjatlar sonini qisqartirish yoki umuman yo'qotish:

- O'quv jarayonini hisobga olishni to'liq avtomatlashtirish; (masalan, "1 ta elektron jurnal" orqali barcha ma'lumotlarni kiritish).
- Takroriy ma'lumotlarni avtomatlashtirish (davomat, baholar, o'quv rejalarini avtomatik tizimlar orqali boshqarilishi).

2. Pedagogik yuklamani aniq baholash:

- O'qituvchilarning ish yukini standartlashtirish (masalan, 1 soat dars = 1,5 soat darsga tayyorgarlik deb hisoblash).
- Darsdan tashqari ishlar (tadbirlar, metodika) uchun hujjatlar talab qilmaslik.

3. Asosiy e'tiborni natijaga qaratish:

- O'quvchilar bilimini baholashni obyektiv yo'lga qo'yish;
- O'quvchilar bilimini baholashni raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni faol qo'llanilishi orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirish;
- Oraliq, yakuniy nazorat test sinovlarida yaxshi natija ko'rsatgan O'quvchilarni "aktivlar" guruhiga o'tkazish yoki davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish;
- Oraliq, yakuniy nazorat test sinovlarida yaxshi natija ko'rsata olmagan O'quvchilarga qayta topshirishga vaqt berish yoki "passivlar" guruhiga o'tkazish;
- Oraliq, yakuniy nazorat test sinovlarida O'quvchilari yaxshi natija ko'rsatgan o'qituvchilarni moliyaviy rag'batlantirish;
- Oraliq, yakuniy nazorat test sinovlarida O'quvchilari yaxshi natija ko'rsatmagan o'qituvchilarga yana imkoniyat berish, ularni malaka oshirish kurslariga jalb etish.

4. Raqamli ta'lim platformalarini joriy etish:

- Elektron jurnal va dasturlarni mukammallashtirish ("Prof-emis.edu.uz " tizimini).
- Avtomatik hisobot tizimlari (masalan, Google Forms yoki maxsus dasturlar orqali ma'lumotlarni yig'ish).

5. O'qituvchilarga qo'shimcha imtiyozlar berish:

- Ta'lim jarayoniga yangilik kiritgan o'qituvchilarni rag'batlantirish (bonuslar, qo'shimcha ta'tillar berish);
- Yordamchi xodimlar jalb etish (masalan, metodistlar yoki ma'muriy xodimlarning hujjatlar bilan shug'ullanishi).

6. Ta'lim muassasa ichidagi jarayonlarni optimallashtirish:

- Muntazam auditoriyalar o'tkazish (o'qituvchilar va O'quvchilar fikrini o'rganish va muammolarni hal qilish).
- Vaqtni boshqarish bo'yicha treninglar tashkil qilish (qanday samarali rejalashtirish kerakligi haqida).

Xulosa: O'qituvchilar – bilim yetkazuvchi, hujjat tayyorlovchi emas!

Agar o'qituvchilarning asosiy vazifasi – sifatli dars o'tish va bilim berish bo'lsa, unda:

Istagimiz:

- ✓ Hujjatbozlikka yo'l qo'yilmasin;
- ✓ Ish yuki aniq va adolatli baholansin.

Xulosa o'rnida yana shuni aytmoqchimanki, o'qituvchi ko'proq O'quvchining bilimini oshirish uchun, uning natijasi uchun ishlashi kerak. Bunga erishish uchun professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan O'quvchilarning bilimini baholashda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni faol qo'llanilishi, har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan oraliq va yakuniy nazorat ishlarini baholashni tashqaridan, markazlashtirilgan holdagi obyektiv baholash tizimini yo'lga qo'yish kerak deb o'ylayman. Bu ishlarni respublika davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshirib borish eng holis va to'g'ri yo'l deb bilaman. Ana shunda O'quvchi o'z bilimini baholanishini obyektiv, holis ekanligini tushunib, o'qishga, fanlarni o'zlashtirishga mas'uliyatni chuqur his qilgan holda qaraydi, o'z ustida ko'proq ishlaydi va o'qituvchidan ko'proq bilim olishga intiladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining ham o'z ustida ko'proq ishlashiga, o'z fanini, fanga oid yangiliklarni yanada ko'proq o'rganib O'quvchiga yetkazishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qonun hujjatlari va davlat dasturlari

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni** (2021). *"Kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*. PF-6125-son.
2. **Vazirlar Mahkamasining qarori** (2022). *"O'qituvchilarning hujjatbozlik yukini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar"*. 345-son.

Kitoblar (Ilmiy, pedagogik asarlar)

3. **To'rayev, H.** (2020). *Kasbiy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
4. **Xolmirzayev, B.** (2019). *Ta'lim sifatini baholash: nazariya va amaliyot*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
5. **Qodirov, M.** (2021). *Raqamli ta'lim: muammolar va yechimlar*. Namangan: "Namangan matbuoti".

Ilmiy jurnallardagi maqolalar

4. **Abdullayeva, S.** (2022). “Kasbiy ta’lim muassasalarida o’qituvchilarning pedagogik yuklamasini optimallashtirish”. *Pedagogika jurnali*, 4(12), 45–52.
5. **Yusupov, R.** (2023). “Elektron jurnallar va ularning samaradorligi”. *Zamonaviy ta’lim*, 6(3), 28–35.
6. **Sobirova, D.** (2021). “O’quvchilarni obyektiv baholashning yangi usullari”. *Xalq ta’limi*, 5, 18–23.

Gazetalardagi maqolalar

7. “O’qituvchilar hujjatlar emas, bilim uchun ishlashi kerak” (2023, 15-mart). *O‘zbekiston ovozi gazetasi*.
8. “Hujjatbozlikka barham berish – ta’lim sifatining kaliti” (2022, 10-oktabr). *Xalq so‘zi gazetasi*.
9. “Kasbiy ta’limda raqamlashtirish: birinchi qadamlar” (2023, 5-yanvar). *Ma’rifat gazetasi*.

Onlayn manbalar va resurslar

10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2023). “Kasbiy ta’limda avtomatlashtirish dasturlari”. www.edu.uz
11. “Prof-emis.edu.uz” – Kasbiy ta’lim muassasalari uchun elektron monitoring tizimi.
12. “O’qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” (2022). www.uzpedagog.uz

Qo‘shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar

15. **Toshpo‘latov, A.** (2020). *O‘qituvchilar uchun vaqtni boshqarish*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
16. “Pedagogik mahorat” jurnali. (2021–2023). Toshkent: O‘zPITI nashriyoti.